

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

ISMATOV AZIMJON AZAMAT O‘G‘LI

**“AKTSIZ SOLIG‘INI HISOBLASH VA BUDJETGA
TO‘LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri

i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ ____ ” _____ 2013 y.

Bitiruvchi: Ismatov Azimjon Azamat o‘g‘li _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Yakubova N. _____

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

	Betlar
KIRISH.....	3
I BOB. AKTSIZ SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	7-26
1.1. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va uni undirishning o'ziga xosligi.....	7
1.2. Aktsiz solig'ining iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash omillari.....	14
1.3. Aktsiz solig'ining budjet solikli daromadlarida tutgan o'rni.....	19
II BOB. AKTSIZ SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (M.ULUGBEK TUMANI KORXONALARI MISOLIDA).....	27-43
2.1. Aktsiz solig'i solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi tahlili.....	27
2.2. Aktsiz solig'i stavkalari, hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tahlili.....	35
2.3. Aktsiz markalari va ularni qo'llashning maqsad va vazifalari.....	40
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA AKTSIZ SOLIG'INI HISOBLASH VA BUDJETGA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44-52
3.1. Xorijiy davlatlarda aktsiz solig'ini undirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	44
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aktsiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash mexanizmini takomillashtirish.....	49
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	56
ILOVALAR.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan tadbirkorona foydalangan holda, bir tomondan xalqimizning hayot ehtiyojlarini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa davlatimiz o'z zimmasiga olgan ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy bazasini mustahkamlash tadbirlarini shiddat bilan amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, soliq-budjet siyosati borasida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida budjet daromadlari va harajatlarining muvofiqligini ta'minlash hamda ular samaradorligini oshirish masalalari turadi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishini ta'minlash, jumladan, soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini yanada erkinlashtirish yo'nalishlarining belgilanishi, jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay soliq muhitini yaratish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir.

Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan respublikamizda yuritilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari I.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash lozim: "2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat budjetining daromadlar qismi ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0.4 foizni tashkil etdi¹".

¹ "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Ma'rifat gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, №6

Iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o'ziga xos soliq tizimining vujudga kelishi avvalo uning tarkibiga kiruvchi soliqlarning harakati bilan bog'liq bo'ladi. Soliq tizimida eng ichki o'zgaruvchan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'plab omillari bilan to'qnashuvchi soliq bu - aktsiz solig'idir. Shu bois, aktsiz solig'ining mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bog'liq holda o'rganish eng dolzarb muammolardan bo'lib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, aktsiz solig'ining mohiyati doimo egri soliqlar doirasida o'rganib kelingan. Aktsiz solig'i egri soliq bo'lganligi sababli uning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali harakterlanadi. Shu bois, aktsiz solig'i o'ziga xos fiskal iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi lozimdir.

Aktsiz solig'i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umum soliq siyosatida muhim o'rin egallaydi. Aktsiz solig'i korxona mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki tarifiga ustama shaklda to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi hisoblanadi. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati budjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aktsiz solig'i ob'ektlari (aktsiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi.

Aktsiz solig'ini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, rivojlangan xorijiy davlatlarda aktsiz solig'idan foydalanish tajribalarini o'rganish, ularni mamlakatimiz iqtisodiy shart-sharoitlariga moslagan holda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqish, shuningdek undan amaliyotda foydalanish natijalarida kerakli xulosalar chiqarish va uni takomillashtirish zarur. Yuqorida qayd etilgan fikrlarning keng mazmuni tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti. M.Ulugbek tumanida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan undiriladigan aktsiz solig'i bitiruv malakaviy ishining ob'ekti hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan aktsiz solig'ini hisoblash va budjetga undirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishi predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi aktsiz solig'ining to'lovchilari, soliq ob'ekti, soliq solinadigan baza, soliq stavkalari, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibini amaliy materiallarga tayangan holda tahlil etish hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida mazkur soliqning hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- aktsiz solig'ini egri soliq sifatida ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochib berish hamda mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida uning asosiy vazifasini aniqlash;
- aktsiz solig'ining davlat budjeti solikli daromadlaridagi o'rnini izohlash;
- aktsiz solig'ining O'zbekiston soliqqa tortish amaliyotida qo'llanilish mexanizmini tahlil etish;
- aktsiz solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini qiyosiy o'rganish;
- aktsiz solig'ining hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan ilmiy xulosa va amaliy takliflardan aktsiz solig'ini undirish mexanizmini takomillashtirishda, soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobini tashkil etish va yuritish, soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash, soliqni budjetga o'z vaqtida to'lanishini tashkil etishni takomillashtirishda hamda soliq munosabatlarini tartibga solish va soliq bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari hamda nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan.

Ishning birinchi bobida aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budget daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida aktsiz solig'ini hisoblash va budgetga to'lash mexanizmining amaldagi holati M.Ulugbek tumani korxonalari misolida tahlil qilingan.

Ishning uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aktsiz solig'ini undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni tadqiq qilish natijasida chiqarilgan xulosalar bayon qilinib, taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

1-BOB. AKTSIZ SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.

1.1. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va uni undirishning o'ziga xosligi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi doirasida yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar yangicha iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda faol ishtirok etadigan soliq turlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslanish zaruriyatini tug'dirmoqda. Hozirgi kunda soliq tizimi tarkibida aktsiz solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat budjetini shakllantiruvchi manba bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin². Aktsiz solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funktsiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak. Ana shunday manbalarni budjetga jalb qilishning asosiy, balki, kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir. Aktsiz solig'i mamlakatimiz olimlari tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan va natijada uni amaliyotda shakllantirishda turlicha yondoshuvlar asos qilib olinmoqda. Bunday yondoshuvlar o'zining ikki xususiyati bilan ko'zga tashlanib kelinmoqda, ya'ni:

- aktsizli tovarlarning aholi iste'mol darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi;
- aktsizli tovarlarga nisbatan o'rnatiladigan soliq stavkalari miqdorining o'zgaruvchanligi;
- aktsiz solig'iga tortiladigan oborotni aniqlanishining tartibi va hokozolar.

Bunday xususiyatlar o'z navbatida aktsiz solig'i doirasida echilmagan anchagina muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Shunday muammolardan biri aktsiz solig'ining mohiyatini ochish orqali uni soliq munosabatlari doirasida va davlat budjetining to'liqligini ta'minlashdagi o'rnini belgilash bilan bog'liq bo'lmoqda.

² Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. 95-bet

Aktsiz solig'ining mohiyati avvalo soliq undiruvchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham uning mohiyatini shu ikki sub'ekt: to'lovchi va undiruvchi o'rtasida yuzaga keladigan domiy munosabatlar doirasida ifodalash zarur. Ammo aktsiz solig'i mohiyati avvalo shu soliq voqeligi tabiatini ifodalash zaruriyatini taqozo etadi³.

Aktsiz solig'i voqeligining tabiati har qanday iqtisodiy voqelik tabiatiga o'xshashdir. Chunki iqtisodiy voqeliklar tabiati ularni tashkil etish manbalarida to'liq o'z aksini topadi. Shunday ekan, mavjud iqtisodiy kategoriyalarning asl manbai qo'shimcha qiymat bo'lganligi kabi aktsiz solig'ining asl manbai ham qo'shilgan qiymatdir. Lekin, iqtisodiy kategoriyalar manbai o'z qadamini birlamchi taqsimot doirasida topsa, aktsiz solig'i shu qo'shimcha qiymatni iste'mol doirasiga chiqarilgan qismining bir bo'lagi shaklida topmokda. Aktsiz solig'i birlamchi taqsimotda emas, balki ikkilamchi taqsimotda namoyon bo'ladi va o'z mohiyatining ana shu doirada ifodalanishini taqozo etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, aktsiz solig'i tovar va xizmat narxiga ustama ko'rinishida undirilsada, u iste'molchi tomonidan yuzaga keltirilgan pul mablag'lari hisobidan to'lanadi. Ana shu pul mablag'larining ham asl manbai qo'shilgan qiymat bo'lib hisoblanadi⁴. Bu esa aktsiz solig'ining doimiy takrorlanib turadigan iqtisodiy voqeilik deb tushunmog'imizni taqozo etadi.

Chunki aktsiz solig'iga boshqa iqtisodiy qiymat kategoriyalari kabi doimiy qaytarilib turadigan pul munosabatlarida namoyon bo'ladi. Qolaversa, pul munosabatlari mazmunining o'ziga xos jihatlarini ochish orqali aktsiz solig'ining mohiyatini shakllantirish mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa soliq turlari kabi aktsiz solig'ining mohiyatini davlat budjetini to'ldirib turuvchi vosita yoki qurol sifatida ko'rishlik ushbu soliqni pul munosabatlari doirasida namoyon bo'lishligini inkor etish bilan tengdir. Chunki har qanday iqtisodiy voqeliklar harakatiga turli vosita va qurollar orqali ta'sir etish mumkin. Soliq to'lovlarini vosita va qurollar orqali tartibga solish mumkin, ammo ularga

³ Zaynalov J. Soliqlar va soliqqa tortish. Samarqand. 2002. 282-bet

⁴ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 254

tayangan holda voqelik mohiyatini ochish mumkin emas. Qurol va vosita iqtisodiy voqeliklardan pul munosabatlari doirasida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi yoki ularni tartiblashtirishni taqozo ettiradi, xolos.

Bu borada shuni aytish joizki, aktsiz solig'ining mohiyati doimo egri soliqlar doirasida o'rganib chiqiladi. Shu sababli, uning ham iqtisodiy mohiyati qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatiga yaqindir. Bu yaqinlik davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Ularning o'zaro bog'liqligi ham maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi milliy daromadning bir qismi bo'lishi pul mablag'larini davlat budjetiga safarbar qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek bunday soliqlarga o'ziga xos fiskal iqtisodiy kategoriya sifatida ham qaraladi.

Ular orqali davlat budjeti daromadlarining salmoqli qismi tashkil etilmoqda, ular o'zlariga mansub funktsiyalar orqali ishlab chiqarishga, uning o'sishini rag'batlantirishga, sarmoyaning jamg'arish jarayonini kuchaytirishga hamda aholining to'lov qobiliyatini yaxshilanishiga va shu kabi tadbirlarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Aktsiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra, tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqdir. Uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi⁵.

Budjet tushumini ta'minlash orqali aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati xalq xo'jalik manfaatlarini qondirishga ko'proq mablag'lar jalb ettirilishida namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy istemolchilarning to'lov qobiliyatlarining oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aktsiz solig'i ob'ektlari (aktsiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalarini pasaytirilishida, aholi to'lov qobiliyatining o'sishida o'z aksini topadi⁶. Shuni ham ta'kiddab o'tish kerakki, subektlar aktsiz solig'i iste'molchilari sifatida ham yuzaga kelishi mumkin.

⁵ Zaynalov J. Soliqlar va soliqqa tortish. Samarqand. 2002. 283-bet

⁶ Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2005. 84-bet

Ushbu soliq bo'yicha engilliklarning berilishi tovarlar harid qilish uchun olinadigan kredit resurslarining qisqartirilishiga, bu esa o'z vaqtida moliyaviy natijalarning oshishiga olib keladi.

Demak, aktsiz solig'i ijtimoiy muhitni ham yaxshilash imkoniyatlarini moliyaviy natijalarning o'sishi orqali ta'minlanishi mumkin. Aktsiz solig'ining takomillashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilanishi va iste'mol darajasini oqilona tashkil etishga olib keladi.

Shunday qilib aktsiz solig'ining mohiyati ob'ektiv pul mablag'lar taqsimot doirasida yuzaga keladigan ayrim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirishda o'z aksini topadi. Lekin shu bilan birga ta'kidlash lozimki, aktsiz solig'i faqat qiymat taqsimotida yuzaga keladigan pul munosabatlarida o'z ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini shakllantiradi.

Aktsiz solig'i ham barcha soliq turlari kabi majburiy to'lov bo'lsada, bunday majburiylik Oliy Majlis tomonidan demokratik tamoyillarga amal qilgan holda qabul qilingan qonunlarda o'z ifodasini topgandir. Avvalo aktsiz solig'i majburiy to'lov sifatida davlatning manfaatini ko'zda tutgan holda demokratik me'yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan tartiblashtirilib turiladi. Shuning uchun ham aktsiz solig'i o'z mohiyatidan kelib chiqib uzoq yillarga mo'ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydigan boshqa soliq turlaridan hisoblanish ob'ekti va budjetga undirilish tartibi bilan farq qilsa ham tashkil etishlarining asl manbalari jihatidan farq qilmaydi. Aktsiz solig'ining mohiyatini ochishda uning asl manbasiga e'tiborni qaratish zarur. Chunki aktsiz solig'ining mohiyatini ochishda uning asl manbasi munosabatlarining real majmuasini ifodalaydi. Shuningdek, aktsiz solig'ini tashkil etuvchi asl manba ob'ektiv pul munosabatlarining bazis tushunchasiga kiradi va huquqiy me'yorlar bilan mustahkamlangandir. Bu borada shuni aytish kerakki, aktsiz solig'ini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar, uni aniqlash ob'ektining o'zgartirilib turilishi, aktsizli tovarlar sonini oshirilishi yoki kamaytirilishi uning mohiyatini ifoda eta olmaydi. Aktsiz solig'ini bunday xususiyatlari qonunlar va soliq siyosati orqali belgilanib davlat oldida turgan vazifalarning hal etilishida omil sifatida bo'lishligini ifodalaydi, xolos.

Shunday qilib, aktsiz solig'i pul munosabatlarini ifodalab, munosabatlar doirasida uni to'lovchilar sifatida iste'molchilar va davlat turadi. Uni to'lovchi iste'molchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar va ularni tashkil etish Oliy Majlis tomonidan tartiblashtirilib turiladi. Chunki aktsiz solig'i budjet daromadlarini tashkil etuvchi eng asosiy manbaa bo'lib hisoblanadi. Budjet daromadlarini manbai sifatida tashkil etishda yuzaga keladigan munosabatlar aktsiz solig'iga xos va boshqa iqtisodiy voqeliklarga mansub bo'lmish funktsiyalar orqali o'z mohiyatini to'liq echib kelmokda. Unga ham taqsimot va nazorat funktsiyasi mansubdir. Faqat shu funktsiyalar uning mavjud iqtisodiy voqeliklar doirasida harakat chegarasini va mohiyatini ochib beradi.

Aktsiz solig'ining taqsimot funktsiyasi va uning harakat chegarasi soliqlarning (ya'ni, keng ma'nodagi) mohiyatidan kelib chiqadi, ya'ni ijtimoiy mahsulotni, uning tarkibiy qismi bo'lmish milliy daromadni taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan va ta'minlab beruvchi munosabatlardandir.

Aktsiz solig'iga xos bo'lmish taqsimot funktsiyasi ijtimoiy mahsulotni mustaqil elementlarining taqsimotida va qayta taqsimotida yuzaga keladi. Shu doirada yuzaga keladigan taqsimot aktsiz solig'ini boshqa soliqlardan o'laroq farqlash imkoniyatini yaratib beradi. Chunki har qanday iqtisodiy voqelikni ijtimoiy mahsulot doirasida o'ziga xos mustaqil taqsimot funktsiyasi markazlashtiradigan pul fondlarini tashkil etish orqali o'z mohiyatini mazmunli keng ma'noli doirada ifodalaydi. Bunday element soliqlarni barcha belgilariga javob beradi va ular bilan o'zaro bog'liqlikda soliqlar mohiyatini kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari orqali mazmunan boyitib boradi.

Aktsiz solig'ining pul munosabatlari doirasida normativ xususiyati bilan ajralib turganligi uni nazorat funktsiyasi namoyon bo'lganligini ifodalaydi. Nazorat funktsiyasining realizatsiya shakli aktsiz solig'ining miqdoriy jihatlarini axborotlar orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning tashkil etilishida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy jarayonlarni qiymat ko'rsatkichlari orqali baholash va o'lchash aktsiz solig'ining nazorat funktsiyasining o'ziga xos xususiyatida aks etadi. Chunki aktsizli oborot aktsiz solig'i obektini ifodalasa, iste'mol fondlari va kredit resurslari esa uni

harakatga keltiruvchi asosiy manbalari bo'lib hisoblanadi. Uning yana bir o'ziga xos xususiyati kengaytirilgan ishlab chiqarishning turli bosqichlarida ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lishligidir. Bu esa aktsiz solig'idan kengaytirilgan ishlab chiqarishning turli bosqichlarida nazorat vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aktsiz egri soliqlarning eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u tovar, xizmat narxiga qo'shimcha ustama ko'rinishida undiriladigan va bevosita iste'molchilar tomonidan to'lanadigan iqtisodiy kategoriyadir. Aktsiz solig'ini ustama shaklida qo'llash uni boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'xshash narsa deb tushunmaslik lozim. Misol uchun "savdo ustamasi", "ustama haq" kabi tushunchalardan mazmunan farq qiladi. Xatto uni belgilash tartibi nafaqat ulardan xatto boshqa egri va to'g'ri soliq turlaridan ham bevosita farq qiladi.

Aktsiz solig'i soliq tizimining tarkibiy qismi bo'lib, soliq siyosatining shakllantirilishida alohida o'rin egallaydi. Chunki aktsiz solig'i bozor iqtisodiyoti sharoitida turli miqdorlarda undirilib, davlat budjetining daromad qismini eng katta hissasini tashkil qilmoqda.

Aktsiz solig'ini aniqlash tartibi boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, avvalo tezkorlik bilan qisqa vaqt ichida budjetga ko'chirilishi va budjet to'liqligini ta'minlashi uning rolini iqtisodiy voqealar ichida oshirib kelmoqda. Shunday qilib aktsiz solig'i ba'zi tovarlarning iste'mol qilinishini cheklashda, kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan harajatlar o'rmini qoplashda, yangi magistral yo'llarni qurish va shunga doir harajatlarni qoplashda o'ta muhim ekanligidan kelib chiqqan holda unga bo'lgan zaruriyatni bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora oshirib kelmoqda. Xatto aktsiz solig'ini ayrim munosabatlar doirasida qo'llash (ya'ni, avtomobil sotib olish, tovarlarni eksport va import qilishda) orqali budjet defitsitini bartaraf etish, davlat valyuta tushumini oshirish imkoniyatlari yaratib berilmokda.

Aktsiz solig'ining o'ziga xos xususiyati shundaki, u qo'shilgan qiymat solig'i kabi tovar (xizmat) narxiga ustama ko'rinishida namoyon bo'lsada, undan aniqlanish usullari orqali farq qiladi, chunki aktsiz solig'i summasi o'z tarkibida nafaqat tovar (xizmat) narxini balki o'zining birlamchi hajmini ham ifodalaydi (ushbu tartib

O'zbekiston Respublikasida 2008 yildan bekor bo'lgan)⁷. Aktsiz solig'ining bunday tartibi davlatning soliq siyosati bilan belgilangan. Aktsiz soliq hajmining ushbu tartibi boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda nisbatan amal qilayotgan tartibdan o'laroq farq qiladi. Misol uchun, ayrim davlatlarda iste'mol solig'i, ya'ni har bir harid uchun soliq, xizmat ko'rsatishda oborot solig'ini aniqlanish tartib va usullari bizda amal qilayotgan aktsiz solig'ini aniqlash tartibidan farq qiladi Ammo iqtisodiyotni barqarorlashtirilishi, davlat budjeti taqchilligining bartaraf etilishi bevosita ushbu soliqni aniqlash yoki belgilanish tartibiga qonuniy ravishda o'zgartirish kiritishi mumkin.

Bu borada shuni aytib o'tish joizki, aktsiz solig'iga 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashma va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda bozor munosabatlariga o'tish bilan 1992 yil 14 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga asosan 1992 yildan boshlab joriy etilgan bo'lsada, u o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Avvalo u ommaviy xaridorgir tovar va xizmatlar hamda zeb-ziynat buyumlarning muayyan doirasiga nisbatan qo'llaniladi⁸. Ammo rivojlangan mamlakatlarda esa aktsiz solig'i umumiy soliq siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, budjet daromadlarini to'ldirish maqsadida joriy etilgan bo'lsa, unda bizda amal qilinayotgan aktsiz solig'i umumiy tamoyillari jihatidan boshqa davlatlardagidan deyarli farq qilmaydi. Chunki mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aktsiz solig'iga tortilishi belgilangan tovar va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar aktsiz solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

1992 yilda inflyatsiya yuqori bo'lganligi sababli ikkinchi darajali ehtiyoj mollariga qat'iy stavkalar (absolyut qiymatlarda) aktsiz solig'i belgilanadi. Chunki bu davrda narxning farqi evaziga olinayotgan daromadning bir qismi soliqqa tortilmay qolmoqda edi. Shu sababli 1993 yil yanvar oyidan boshlab qat'iy stavkalar o'rniga foizli stavkalar qo'llanila boshladi. Natijada soliq ob'ektining hajmi o'zgarishiga mos ravishda soliq summasining o'zgarishi, soliq summasining aniq

⁷ Zaynalov J. Soliqlar va soliqqa tortish. Samarqand. 2002. 285-bet

⁸ Jo'raev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. –T.: "Fan nashriyoti", 2004. 110-bet

hisoblanishi va budjetga undirilishi ta'minlandi. Shu tariqa aktsiz solig'i miqdori tovarning ishlab chiqarish harajatlarini, foydani, aktsiz solig'i miqdorini ichiga olgan, sotish narxidan kelib chiqqan holda aniqlanishiga asos solindi. 1993 yil yanvar oyidan boshlab ushbu tartib aktsiz solig'iga tortiluvchi barcha mahsulotlarga nisbatan qo'llanila boshladi.

1.2. Aktsiz solig'ining iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash omillari.

Aktsiz solig'idagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va aktsiz solig'i solinadigan tovarlarni muomala sohasida sotuvchi yoki iste'molchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sub'ektlari tomonidan sotib oluvchilar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aktsiz solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Bu esa aktsiz solig'ining to'lovchilarini soliq munosabatlari doirasida va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi mas'uliyatlarini tobora oshirib kelmoqda. Chunki aktsiz solig'i solinadigan tovarlar xalq xo'jaligining eng nufuzli tarmoqlarida ishlab chiqarilmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan aktsizli tovarlar bevosita muomala sohasiga tushadi. Bu esa aktsizli tovarlarning iste'molchilar tomonidan sotib olinishini va pul tushumlarining bank tizimlariga bir tartibda tushushini tartiblaydi. Aktsiz solig'i bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlashda soliq munosabatlarining faolligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Iste'molchiga etib borayotgan qanday aktsizli tovar bahosi tarkibidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning harakatini pul munosabatlari orqali amalga oshirishda muhim va murakkab muammolarni bajarib kelmokda. Aktsiz solig'ining boshqa soliqlar bilan o'zaro bog'liqligi va rivojlanish jarayoni bir muncha murakkab vaziyatda amalga oshayotgan bo'lsa ham iqtisodiy taraqqiyotni xalq xo'jaligining nufuzli tarmoqlari orqali ta'minlashga imkoniyat tug'dirmoqda.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichi ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi, pulning qadrsizlanishi va boshqa bir qator ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lgan chuqur iqtisodiy torlik aktsiz solig'i orqali tartibga solinadi. Chunki ana shunday vaziyat yuzaga kelganda butun og'irlik markazi asosan davlat budjeti zimmmasiga tushganligi soliq

og'irligining aktsiz solig'iga yuklatilishini taqozo etgan edi. Davlat budjeti harajatlarning avvalgi (bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichiga qadar) tarkibiga xos bo'lmagan yoki favquloddagi holatga xos bo'lmagan ba'zi bir to'lovlar ortig'i bilan amalga oshirilishida (yani ayrim tovar va xizmatlar bahosining qimmatlashuvi munosabati bilan ular bahosining ma'lum miqdorini kompensatsiya qilish, kam ta'minlangan aholi guruhlarini iqtisodiy jihatdan himoyalash, budjetdan ta'minlanadigan haq to'lash miqdorini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish ob'ektiv zaruriyatga aylanganda) aktsiz solig'i budjet daromadlarini tartibga soluvchi vosita sifatida soliq munosabatlari doirasida muhim o'rin egallaydi. Bunday sharoitlarda aktsiz solig'idan keng foydalanish soliq stavkasining miqdorini nisbatan aktsizli tovarlar bo'yicha oshirish, soliq imtiyozlarining to'g'ri soliqlar bo'yicha ma'lum darajada qisqartirilishini ob'ektiv tarzda vujudga keltirdi. Ushbu holat o'z navbatida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon tug'dirib beradi.

Respublika oldida turgan iqtisodiy ijtimoiy muammolarni echish va takomillashtirishda asosiy maqsad soliqlar bo'yicha og'irlik markazini aktsiz solig'iga yuklash va shu orqali korxonalar ixtiyorida qoladigan foydani oshirish (shu ko'rsatkichlarga nisbatan soliq stavkasini pasaytirish va shu stavkalarni pasaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llash yo'li bilan) imkoniyatlari yaratib beriladi. Bunday chora-tadbirlar asosan aktsiz solig'i yordamida korxonalarning moddiy va pul resurslaridan foydalanishdagi huquqlarini kengaytirish soliq og'irligini kamaytirish va budjet daromadlariga muvofiq ravishda korxonalar foydasini oshirilishini nazarda tutadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni taminlashda aktsiz solig'i faqat ijobiy omil sifatida soliq munosabatlarida maydonga chiqadi. Ammo boshqa soliq turlari ham o'z vaqtida aktsiz solig'idan kam bo'lmagan ijobiy ta'sirchanlik bilan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab kelishi sir emas albatta. Shuningdek iqtisodiyotni takomillashtirishda boshqa iqtisodiy kategoriyalarning o'rnini juda kattadir. Lekin aktsiz solig'i bozor kon'yunkturasiga tez moslashuvi bilan ajralib turganligi bois ayrim iqtisodiy o'sish yuz berganda unga tayanish orqali soliq og'irligini

maqbullashtirish va iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishini amalga oshirish mumkin.

Aktsiz solig'ining soliq tizimida tutgan o'rni, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi mohiyati uni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqargan bo'lsada, uni qo'llash tartibiga tayanilgan holda iqtisodiy chegarasini belgilashga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Aktsiz solig'ining chegarasini belgilashdan asosiy maqsad ham avvalo uni fiskal maqsadlari yo'lidagi ahamiyatini oshirish orqali budjetni mablag' bilan ta'minlash orqali budjet taqchilligi oldini olishga imkoniyat yaratish; yuqori daromad keltiruvchi tovarlarga nisbatan uni o'rnatish orqali daromad taqsimotini optimal amalga oshirilishini ta'minlash; ijtimoiy muhim bo'lgan tovarlarga o'rnatish orqali aholi pul mablag'larini birinchi ehtiyojli tovarlarga nisbatan to'lov qobiliyatini oshirish; moliyaviy va bank kredit resurslarini aktsizli tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlardan birinchi ehtiyojli va kundalik zarurat bo'lgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarning yuzaga keltirilishiga sarflash va hakazolar hisoblanadi. Aktsiz solig'i iqtisodiy chegarasini belgilashda bunday yondoshuv aholi daromadlarining qayta taqsimlanishini budjet mablag'lari orqali amalga oshirilishi va kam ta'minlangan aholi qatlamlari daromadlarining to'lov qobiliyatlarining talab darajasiga ko'tarish bilan ham bog'liqdir⁹. Biroq har qanday iqtisodiy voqelikni iqtisodiy chegarasining belgilanishi nimalarga asoslanishi mumkin degan savol tug'ilishi mumkin. Bu ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqdir. Chunki iqtisodiy o'sish qancha yuqori bo'lsa, u holda budjet daromadlarining to'liqligi bevosita to'g'ri soliqlar orqali ta'minlanadi. Bu esa aktsiz solig'iga bo'lgan ehtiyojni minimumga etkazishga shart-sharoit yaratadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning foydasi qancha yuqori bo'lsa unda budjet tushumlari ham shuncha yuqori bo'ladi. Oxir-oqibat aholi keng qatlamining daromadiga ta'sir etuvchi aktsizli tovarlarga qo'yilgan aktsiz soliq yukini kamaytirishga erishiladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, aktsiz solig'ining hozir amal qiluvchi chegaralarini shakllanishga budjet taqchilligining ta'siri ham kattadir. Shu bois davlat

⁹ Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2009. 84-bet

yuzaga kelayotgan budget taqchilligini minimum darajaga tushirish maqsadida qisman aktsiz solig'iga ham tayanmoqda. Natijada aktsiz solig'i stavkalarini o'zgar may qolgan vaqtlarida aktsizli tovarlar miqdorining ko'payishi yoki teskari holat yuz bermoqda. Bunda shuni ham e'tiborga olish kerakki, agar budget taqchilligining o'sishi davlat harajatlarining ortishi hisobiga emas, balki soliq to'lovchilarning moliyaviy holatining yomonlashuvi yoki pasayishi bilan bog'liq bo'lsa ham, davlat bunday omilni oldini olish maqsadida aktsiz solig'idan tushadigan tushumlarning yuqorida qayd etilgan tartiblarda oshirilishiga shart-sharoit yaratib beradi. Lekin bunday omillarning yuzaga kelishi qanday sharoitlarda ham yuz bermasin aktsiz solig'ining iqtisodiy chegarasini belgilash va uni oqilona tartibga solib turish muhimdir. Chunki bozor iqtisodiyoti munosabatlarining barqarorlashuvi, raqobatning kuchayishi aktsiz solig'ining keng doirada istemolchilar elkasiga yuklanishi uchun shart-sharoit yaratib bermaydi. Talab va taklif qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda aktsizli tovarlar ko'zda tutilgan narxlarla sotilmay past narxlarda sotilsa unda aktsiz solig'i yukining katta qismi shunday tovarlarni sotuvchisining elkasiga kelib tushadi.

Bunday holat aktsizli tovarlar bilan savdo-sotiq qiluvchi yoki uni ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning faoliyatini cheklanishiga yoki to'xtatilishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Bunday muammolarning mavjudligi aktsiz solig'ini ikki o'ziga xos tartibda chegaralanishini taqozo etmokda. Amallagi tajribalardan kelib chiqqan holda aktsiz solig'ini iqtisodiy chegarasini belgilovchi birinchi muammo bevosita uning sub'ektlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi muammo esa unga mansub stavkalariga borib taqalmoqda. Shunday qilib, aktsiz solig'ining iqtisodiy chegarasini asoslashda qo'yidagilarning e'tiborga olinishini ta'minlash muhimdir, ya'ni;

- aktsizli tovarlarning bazaviy qiymatini soliq ob'ekti sifatida asos qilib olinishini;
- aktsiz tovarlar bo'yicha soliq ob'ektini belgilashda uning absolyut summasini sun'iy ravishda oshirilishiga yo'l qo'ymaslikni (ya'ni aktsizli oborot summasini ob'ekti sifatida olinishidan voz kechish orqali);
- aktsizli tovarlarni va soliq stavkalarini belgilashda, shunday tovarlarning

aylanish tezligining e'tiborga olinishini (chunki aktsizli tovarlar bo'yicha tovar koldiqlari nafaqat ularni ishlab chiqaruvchilarini, balki sotuvchilarini ham moliyaviy holatlariga salbiy ta'sir etib, harajatlar massasini oshirilishiga sabab bo'lmoqdalar).

Bunday holatlarni etiborga olish va kun tartibiga chiqarilgan muammoni tezlik bilan echishda uch oddiy usuldan foydalanish mumkin, ya'ni;

- aktsizli tovarlar bo'yicha soliq stavkasini oshirish orqali soliq ob'ektini aktsizli oborotdan tovar qiymati darajasiga tushirish;
- soliq stavkalarini amaldagi chegaralarda saqlash orqali aktsizli tovarlar doirasini ko'paytirish;
- aktsizli tovarlar doirasini ko'paytirish orqali soliq ob'ektini aktsizli oborotdan tovar qiymati darajasiga tushirish.

Lekin har bir usulni qo'llanishi soliq to'lovchilarni bank tizimi bilan kredit munosabatlarini keskinlashtirish mumkin. Bu esa o'z vaqtida soliq kreditlarini yoki kredit imtiyozlarining keng qo'llanilishini taqozo ettiradi. Shuning uchun har bir usulni qo'llashda bir tomondan to'lovchilarning moliyaviy holatlarini, ikkinchi tomondan aholi daromadlarining o'sishini unga mansub ravishda to'lov qobiliyatlarini oshirilishi bilan ta'minlanishiga alohida etiborni qaratmoq muhimdir.

Umuman iqtisodiy adabiyotlarda doimiy o'zgaruvchan ko'rsatkichlarni iqtisodiy chegarasini belgilash e'tibordan chetda qolib ketmoqda, shu jumladan, aktsiz solig'i, buning sababi *birinchidan*, barcha sub'ektlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni (yoki bajariladigan xizmatlarni) qamrab olmaganligi, *ikkinchidan*, tovarlarni (xizmatlarni) aktsiz solig'i munosabatlari doirasiga kiritilishini Prezident qarori bilan amalga oshirilishidir¹⁰. Umuman aktsiz solig'ini shu ikki sabablarga ko'ra soliq munosabatlariga kiritilishini o'ziga xos ijobiy xususiyatlari bevosita iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli bilan bog'liqligi yuqorida alohida ta'kidlab o'tilgan edi. Ammo uni qonunlashtirilgan holda stavkalarni aktsizli tovarlarga nisbatan belgilab qo'yilmaganligi, qolaversa aktsizli tovarlar nomlarini shunda yuzaga kelishi soliq munosabatlarining sayozlashishiga olib kelmoqda.

¹⁰ Zaynalov J. Soliqlar va soliqla tortish. Samarqand. 2002. 295-bet

Ammo soliqlarni, jumladan aktsiz solig'ining, belgilanishi kim tomondan qanday stavkalarda va qanday tovarlar bo'yicha amalga oshirilmasin uning iqtisodiy chegarasini aniqlanishi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmokda. Aktsiz solig'ini u yoki bu tovarlarga nisbatan qo'llash va stavkasini belgilash faqat budjet to'liqligini ta'minlash omiliga to'liq bo'lib kelganligi tovar (xizmat) harakati, aylanish tezligi kabi omillarning chetlab o'tilishiga olib kelmoqda. Bu esa aktsiz soliq stavkasini va aktsizli tovarlarni belgilashda "taxminlar"ga ko'proq tayanish tamoyilining ustunlik qilinishidan yaqqol dalolat bermoqda. Natijada qisqa vaqt ichida aktsizli tovarlarni miqdor jihatdan va shu tovarlarni har biriga belgilangan soliq stavkalarini tinimsiz o'zgarilib turilishi qolaversa davlat budjeti to'liqligini ta'minlashda o'zida mavjud bo'lgan barcha ijobiy xislatlarni namoyon eta olmaydi.

1.3. Aktsiz solig'ining budjet soliqli daromadlarida tutgan o'rni.

Ma'lumki, egri soliqlarning asosiy vazifasi mablag' yig'ishdan iborat, ya'ni u fiskal funktsiyani to'liq bajaradi. Lekin bozor jarayonlari rivojlanib borgan sari egri soliqlarning fiskal funktsiyasi bilan bir qatorda boshqa vazifalari ham amal qila boshlaydi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan egri soliqlarga tayanadi. Davlat bu soliqlar orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Egri soliqlar, shu jumladan, aktsiz solig'i ham, bugungi kunda davlat budjetini shakllantirayotgan asosiy soliqlardan hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlarda egri soliqlar uzoq vaqt fiskal funktsiyani bajaradi. Rivojlangan davlatlar soliq amaliyotini kuzatsak, budjet daromadlarida egri soliqlar salmog'i past darajada bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda budjet daromadlari tarkibida egri soliqlar salmog'i birinchi o'rinni egallasa, rivojlangan davlatlarda budjet daromadlari tarkibida esa to'g'ri soliqlar birinchi o'rinni egallaydi¹¹. Bizning respublikamiz rivojlanayotgan davlat hisoblanganligi bois, egri soliqlar davlat budjetida hozircha etakchi

¹¹ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: "Юрайт", 2012. С. 288

o'rinni egallab turibdi. Aktsiz solig'idan tushumlar tahlilidan oldin egri soliqlarning budjet daromadlaridagi ulushini tahlil etsak.

Quyidagi jadvalda egri soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i to'g'risida ma'lumot berilgan:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarida egri soliqlar salmog'i dinamikasi (foizda)¹²


Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlar - jami	100	100	100	100
Egri soliqlar	49,5	53,1	53,5	54,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	29,7	30,4	32,3	33,0
Aktsiz solig'i	14,4	16,7	15,3	15,1
Bojxona boji	3,5	3,8	3,2	3,5
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1,9	2,4	2,6	2,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga kelib tushayotgan egri soliqlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi yuqori bo'lib, o'sish tendentsiyasiga ega. Uning salmog'ini yillar bo'yicha tahlil etganda, jumladan, 2009 yilda 29.7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 33.0 foizgacha o'sgan. Aktsiz solig'ining egri soliqlar bo'yicha tushumlardagi salmog'ini kamayib borganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, uning salmog'i 2009 yilda 14.4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda bu soliq 16.7 foizgacha o'sgan, biroq 2011 yilda mazkur ko'rsatkich 15.3 foizni tashkil etgan holda kamaygan, 2012 yilda esa 15.1 foiz bo'lgan.

Egri soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning ulushi keyingi yillar mobaynida o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan, masalan 2009 yilda ushbu

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

soliqning jami daromadlardagi ulushi 1.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 2.7 foizgacha o'sgan. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹³

Quyida keltirilgan jadvalda M.Ulugbek tumani mahalliy budjetida egri soliqlarning salmog'i tahlili berilgan:

2-jadval

M.Ulugbek tumani budjeti daromadlarida egri soliqlar salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁴


Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
Egri soliqlar	30.1	33.3	35.0
Qo'shilgan qiymat solig'i	20.4	22.7	24.8
Aktsiz solig'i	6.8	7.1	6.3
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	2.9	3.5	3.9

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

¹⁴ M.Ulugbek tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, egri soliqlarning xissasi jami budjet daromadlarida yuqori salmoqqa ega bo'lib, yillar bo'yicha o'sish tendentsiyasiga ega, ya'ni 2010 yilda ularning jami daromadlardagi ulushi 30.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yil kelib budjet daromadlarida 33.3 foizga egaligi qayd qilingan, 2012 yilda esa 35.0 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



2-diagramma. M.Ulugbek tumani budjeti daromadlarida egri soliqlar salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁵

Bizga ma'lumki, biron-bir soliq turiga baho berishda, ushbu soliqning Davlat budjeti daromadlaridagi salmog'iga katta e'tibor beriladi. Bunda ushbu soliq turining faqat bir yoki ikki yillik salmog'i emas, balki bir necha yillik tushumi tahlil qilinadi. Yuqoridagilar amalga oshirilgandan so'ng mazkur soliq turining kelajakdagi o'rni va ahamiyati belgilandi. Hozirgi kunda aktsiz solig'ining Davlat budjet daromadlaridagi ulushi yoki undan keladigan daromad yildan yilga kamayib bormoqda. Bizning fikrimizcha, aktsiz solig'ining budjet daromadlariga haqiqatdagi tushum darajasi aktsiz solig'iga tortiladigan

¹⁵ M.Ulugbek tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning haqiqiy darajasiga mos keladi yoki boshqacha qilib aytganda yaratilgan soliqqa tortish bazasiga to'g'ri keladi.

Aktsiz solig'ining ayrim tovarlarga (nisbatan juda oz) qo'yilishiga qaramasdan undan keladigan daromad yuqori salmoqqa ega bo'lmoqda. Bunga sabab, tovar bahosining ustiga aktsiz solig'ining juda katta miqdorda qo'yilganligidir. Bundan tashqari, bu aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarning ko'p realizatsiya bo'lishi (tamaki va alkohol mahsulotlari). O'zbekistonda katta miqdorda ishlab chiqariladigan va davlat tomonidan monopol sur'atda egalik qilib sotiladigan neft mahsulotlaridan katta summada aktsiz solig'i hisoblanishi ham budjet daromadlarida aktsiz solig'ining ko'p miqdorda bo'lishiga sabab bo'ladi.

Endi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari qismini yillar bo'yicha tahlil kilsak:

3-jadval


Egri soliqlar bo'yicha daromadlar tarkibida aktsiz solig'ining salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁶

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Egri soliqlar	100	100	100	100
Aktsiz solig'i	29.1	31.4	28.6	27.8

Jadval ma'lumotlarini tahlil etar ekanmiz, oxirgi yillarda aktsiz solig'idan tushumlar salmog'i turlicha ulushlarga egaligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2009 yilda aktsiz solig'ining budjetning egri soliqlar bo'yicha daromadlardagi ulushi 29.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 31.4 foizni tashkil etgan, ya'ni o'sganini ko'rish mumkin, 2011 yilda esa ularning salmog'ini kamayib, 28.6 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin, 2012 yil ko'rsatkichlarida esa uning ulushi 27.8 foiz bo'lgan. Umuman olganda aktsiz solig'i bo'yicha tushumlar barqarorlik tendentsiyasiga egadir.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.



3-diagramma. Egri soliqlar bo'yicha daromadlar tarkibida aktsiz solig'ining salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁷

Davlatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng u o'z yo'lini tanladi. Bu yul hozirgi rivojlangan davlatlar borayotgan bozor iqtisodiyotidir. Hozirgi kunda davlatimiz boshidan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrini boshidan kechirmokda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida egri soliqlarning rolini oshirish juda muhimdir, chunki katta miqdordagi mablag'ni topish uchun uni to'g'ridan - to'g'ri soliq to'lovchidan (yuridik yoki jismoniy shaxsdan), uning daromadidan undiradigan bo'lsak, u holda u bunday soliq yukini ko'tara olmaydi. Oxir oqibatda inqirozga uchraydi. Shuning uchun bu mablag'ni tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar elkasiga ma'lum bir vaqtgacha (bozor munosabatlariga o'tib olguncha) yuklasak maqsadga muvofiq bo'ladi.


Endi M.Ulug'bek tuman budjeti daromadlarida aktsiz solig'i tushumlarini tahlil etsak:

¹⁷ M.Ulug'bek tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**Egri soliqlar bo'yicha daromadlar tarkibida aktsiz solig'ining
salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁸**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Egri soliqlar	100	100	100
Aktsiz solig'i	8.9	9.4	8.2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rib turganimizdek, M.Ulug'bek tumani budjeti daromadlarida oxirgi yillarda aktsiz solig'idan tushumlar salmog'i nobarqarorlik tendentsiyasiga egaligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2009 yilda aktsiz solig'ining budjetning egri soliqlar bo'yicha daromadlardagi ulushi 8.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 9.4 foizni tashkil etgan, ya'ni 0.5 foizli punktga o'sganini ko'rish mumkin, 2012 yilda esa 8.2 foizni tashkil etgan holda, soliqning salmog'ini kamayganini ko'rish mumkin. Bu holatni tumanda aktsiz solig'i to'lovchilari sonini kamayganligi bilan izohlash mumkin.



*4-diagramma. Egri soliqlar bo'yicha daromadlar tarkibida
aktsiz solig'ining salmog'i dinamikasi (foizda)¹⁹*

¹⁸ M.Ulug'bek tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

¹⁹ M.Ulug'bek tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bizga ma'lumki, respublikamizda aktsiz solig'i ikkita yunalishda, ya'ni respublikamizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aktsiz osti tovarlaridan hamda respublikamiz hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan import qilinayotgan tovarlaridan undirilmokda. Mamlakatimizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aktsiz osti tovarlaridan aktsiz solig'ini undirish Davlat soliq kumitasi zimmasiga yuklatilgan. Mamlakatimiz hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlardan aktsiz solig'ini undirish Davlat bojxona qo'mitasi vakolatiga berilgan.

Aktsiz solig'i umumiy tushumida respublikamizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqariladigan alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga to'lanadigan aktsiz solig'i summasi salmoqli o'rinni egallaydi. Uning umumiy aktsiz solig'i tushumidagi ulushi yildan yilga o'sib bormoqda. Buning sabablari, birinchidan, aroq mahsulotiga talabning o'sishi va ishlab chiqarish hajmining ortib borishi; ikkinchidan, aroq mahsulotiga aktsiz solig'i stavkalarining yuqori belgilanishi; uchinchidan, import qilinadigan aroq mahsulotlariga aktsiz solig'i stavkasining nixoyatda yuqori belgilanishi va ushbu import aroq mahsulotlari narxining aktsiz solig'i evaziga yuqori darajada bo'lishi va xokazolar. Umumiy qilib aytganda, aktsiz solig'i budjet daromadlarining ishonchli va barqaror manbasiga aylangan.

2-BOB. AKTSIZ SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (M.ULUGBEK TUMANI KORXONALARI MISOLIDA).

2.1. Aktsiz solig'i solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi tahlili.

Aktsiz solig'i respublikamizda 1991 yil 15 fevraldagi "Korxona, birlashma va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida" gi Qonuni asosida 1992 yildan boshlab joriy qilingan. Aktsiz solig'i bu sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, bilvosita soliq sifatida budjetga o'tkaziladigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir.

Hozirgi kunda aktsiz solig'i O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 229-241 moddalari bilan undiriladi va huquqiy tartibga solinadi. Soliq kodeksiga muvofiq, respublikamizda amal kilayotgan aktsiz solig'ini ikkiga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslardan olinadigan aktsiz solig'iga hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan aktsiz solig'iga bo'lishimiz mumkin.

Aktsiz osti tovarlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi hamda belgilangan tartibda soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan etkaziladi.

Quyida keltirilayotgan jadvalda aktsiz osti tovarlari sonining yillar bo'yicha o'zgarish an'anasi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan:

5-jadval

Aktsiz osti tovarlari sonining yillardagi o'zgarish an'anasi²⁰

Yillar	Aktsiz osti tovarlari soni
1992	-
1993	17

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

1994	19
1995	17
1996	18
1997	18
1998	18
1999	25
2000	27
2001	28
2002	27
2003	26
2004	25
2005	22
2006	19
2007	19
2008	13
2009-2013	14

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aktsiz solig'i solinadigan tovarlar guruhidagi aktsiz osti tovarlar soni 2001 yilda eng ko'p sonni tashkil etadi, eng kam miqdor esa 2008 yilda tashkil etgan.

Ma'lumki, soliq to'lovchilar deganda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari tushuniladi. Soliq agentlari esa zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. Soliq to'lovchining vakillari qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

Soliq kodeksining 229-moddasiga muvofiq, aktsiz solig'i to'lovchilar bo'lib quyidagi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'i solinadigan tovarlarni (aktsiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aktsiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aktsiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli qaroriga muvofiq, 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab chakana savdo tarmog'ida sotiladigan oltindan ishlangan zargarlik mahsulotlariga 1 gramm zargarlik buyumi uchun 10 AQSh dollari ekvivalentida aktsiz solig'i joriy etildi, bunda chakana savdo tarmog'i korxonalariga, tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lganida, sotib olingan zargarlik buyumlariga to'langan aktsiz solig'ini hisobdan chiqarish huquqi berildi.

Demak, aktsiz solig'i ishlab chiqaruvchisi bo'lmagan oltindan ishlangan zargarlik mahsulotlarini chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari ham aktsiz solig'i to'lovchilari bo'lishadi.


Quyida keltirilgan jadvalda M.Ulugbek tumanida aktsiz solig'i to'lovchilari sifatida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar haqida ma'lumotlar berilgan:

**M.Ulugbek tumanida ro'yxatdan o'tgan aktsiz solig'i
to'lovchilari to'g'risida ma'lumot²¹**

Soliq to'lovchilar	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Ro'yxatdan o'tgan jami yuridik shaxslar	5397	100	5446	100	5909	100
Shundan, aktsiz solig'i to'lovchi yuridik shaxslar	6	0.1	5	0.09	4	0.07

Jadval ma'lumotlaridan ko'riinib turibdiki, aktsiz solig'i to'lovchilari tumanda ro'yxatdan o'tgan jami yuridik shaxslarga nisbatan 2010 yilda 0.1 foizni, 2011 yilda 0.09 foizni, 2012 yilda esa 0.07 foizni tashkil etgan holda kamayish tendentsiyasiga ega.

Aktsiz solig'i to'lovchilarini guruhlab chizmada ifodalasa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



1-chizma. Aktsiz solig'i to'lovchilarining guruhlanishi²².

²¹ M.Ulugbek tuman DSI hisobot ma'lumotlaridan olindi.

²² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida tayyorlandi.

Soliq kodeksining 230-moddasiga muvofiq, quyidagi operatsiyalar aktsiz solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarni sotish (jo'natish);
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk tao'simlangan taqdirda topshirish;

4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aktsiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Soliq kodeksining 231-moddasiga muvofiq, aktsiz to'lanadigan tovarlar oluvchiga jo'natilgan (topshirilgan) kun aktsiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Aktsiz solig'ini solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Aktsiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S \times A,$$

bunda:

S - tegishli o'lchov birliklarida sotilgan mahsulotning fizik hajmi;

A - aktsiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligiga so'mlarda.

Buni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlariga tayangan holda izohlasak:

**Stavkalari qat'iy belgilangan aktsiz osti tovari bo'yicha
aktsiz solig'ining hisob-kitobi²³**

(o'simlik (paxta) yog'i bo'yicha)

t/r	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Summa
1.	Korxonaning hisob-kitob narxi	1 tonna uchun so'mda	182900
2.	Aktsiz solig'i:		
	a) umumbelgilangan stavkada	1 tonna uchun so'mda	796 059
	b) budjetga to'lanadigani	1 tonna uchun so'mda	796 059

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aktsiz solig'i budjetga 1 tonna uchun 796 059 so'm miqdorida to'lanadi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Stavkalari foizlarda belgilangan aktsizlanadigan mahsulot bo'yicha aktsiz solig'ining hisob-kitobini shartli misol tariqasida tahlil etamiz.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O \times A / 100$$

bu erda:

O – QQS va aktsiz solig'i kiritilmagan narx;

A - aktsiz solig'i stavkasi.

Yuqoridagi formuladan foydalanib quyidagi jadval ma'lumotlarini tahlil etamiz:

²³ Jadval shartli ravishda hisoblandi.

**Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda belgilangan aktsiz to'lanadigan
tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ining hisob-kitobi²⁴**

№	Ko'rsatkichlar		summa
1.	Mahsulot birligining tannarxi	ming. so'm	1 500,0
2.	Zarur foyda	ming. so'm	100,0
3.	Mahsulotning hisob-kitob (ulgurji) narxi (1-satr + 2-satr)	ming. so'm	1 600,0
4.	Aktsiz solig'i stavkasi	foiz	25
6.	Aktsiz solig'ining summasi (3-satr x 4-satr)	ming. so'm	400,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'riinib turibdiki, korxona aktsiz solig'ini yuqoridagi tartib asosida hisoblaydi va budjetga 400.0 ming so'm miqdorida aktsiz solig'i to'laydi.


Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq kodeksining 233-moddasiga muvofiq soliq solinadigan bazaga ayrim hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritilishi mumkin:

²⁴ Jadval shartli ravishda hisoblandi.



2-chizma. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish²⁵

Soliq solinadigan bazaga mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq yangi hisobvaraqa-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hol yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.


2.2. Aktsiz solig'i stavkalari, hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tahlili.

Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi²⁶. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida tayyorlandi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2012. 27-modda

Aktsiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Aktsiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi. Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



3-chizma. Aktsiz solig'i stavkalarining tabaqalashuvi²⁷

Bizga ma'lumki, aktsiz solig'i O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan xom ashyodan (mahsulotdan) aktsiz osti tovarlari ishlab chiqarilgan taqdirda, xom ashyo (mahsulot) bo'yicha to'langan aktsiz solig'i summasi ishlab chiqarish harajatlariga kiritilmaydi, balki tayyor mahsulotning sotilgan hajmi bo'yicha budjetga to'lanadigan aktsiz solig'i summasini aniqlash chog'ida hisobga olinishi kerak.

Alkogolli mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyo (spirt) bo'yicha aktsiz solig'ini hisobga olish tartibini tahlil etamiz:

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida tayyorlandi.

Alkogolli mahsulot bo'yicha hisobga kiritish
(1 butilka aroq misolida)²⁸

t/r	Ko'rsatkichlar	Summa
1.	Aroq tarkibidagi spirtning hajmi, (%)	40
2.	Aroqqa doir aktsiz solig'ining stavkasi (1 dal tayyor mahsulotga, so'mda)	26 160
3.	Aktsiz solig'ining summasi: (1 butilka aroq uchun so'mda)	
	tayyor mahsulotga hisoblab yozilgan	1 308
4.	Etil spirti uchun aktsiz solig'ining stavkasi (1 dal spirt uchun so'mda)	3 031
5.	1 butilka aroq uchun hisobga olinadigan spirt uchun to'langan aktsiz solig'i summasi	60.62
6.	Budjetga to'lanadigan aroq bo'yicha aktsiz solig'ining summasi (1 dal tayyor mahsulot uchun so'mda)	1247.38

Hisobga olinadigan aktsiz solig'i summasi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun aktsiz osti xom ashyosi (mahsuloti)ni etkazib beruvchilar hisobvaraqq-fakturalarda yuklab jo'natilgan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasini ajratib ko'rsatishlari kerak. Agar harid qilinayotgan aktsiz osti xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasi hisobvaraqq-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, u hisob-kitob yo'li bilan hisoblab chiqarilmaydi va tayyor mahsulot bo'yicha hisobga olinmaydi.

Aktsiz solig'idan imtiyozlar yangi tahrirdagi soliq kodeksida ko'zda tutilmagan bo'lsada, quyidagilarga aktsiz solig'i solinmasligi e'tirof etilgan:

- aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

- keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga

²⁸ Jadval shartli ravishda hisoblandi.

joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

- tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariya yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek xayriya maqsadlari uchun aktsiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

- aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

- vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Soliq kodeksining 236-moddasiga muvofiq, aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va aktsiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Aktsiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Quyidagi jadvalda M.Ulugbek tumanida faoliyat yuritayotgan "BOBUR OIL SERVIS" MChJining neft mahsulotlari bo'yicha aktsiz solig'ining hisob-kitobini tahlil etamiz:

**“BOBUR OIL SERVIS” MChJining neft mahsulotlari
bo'yicha aktsiz solig'ining hisob-kitobi²⁹**

	Tayyor mahsulot nomi	Soliq solinadigan baza		Aktsiz solig'ini hisoblash uchun soliq solinadigan baza (tonna)	Aktsiz solig'i stavkasi, 1 tonna uchun so'mda	Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i summasi (so'm)		Kamaytirilishi, qo'shimcha to'lanishi kerak bo'lgan aktsiz solig'i summasi (so'm)
		jami (tonna)	shu jumladan:			hisoblangan	o'n kunlik to'lovlar bilan to'langan	
			Realizatsiya qilingan mahsulot hajmi					
I o'n kunlik	Motor moyi	1.4	1.4	1.4	207000	289800		289800
II o'n kunlik	Motor moyi	0.26	0.26	0.26	207000	53820		53820
III o'n kunlik	Motor moyi	7.12	7.12	7.12	207000	1473840		1473840
Jami, oy uchun		8.78	8.78	8.78		1817460	1790736.6	26723.3
I o'n kunlik	Motor moyi	0.49	0.49	0.49	207000	101430	2155652.8	-2054222
II o'n kunlik	Motor moyi	0.18	0.18	0.18	207000	37260		37260
III o'n kunlik	Motor moyi							
Jami, oy uchun		0.67	0.67	0.67		138690	2155652.8	-2016962
I o'n kunlik	Motor moyi	0.24	0.24	0.24	207000	49680		49680
II o'n kunlik	Motor moyi	0.58	0.58	0.58	207000	120060		120060
III o'n kunlik	Motor moyi	0.46	0.46	0.46	207000	95220		95220
Jami, oy uchun		1.28	1.28	1.28		264960		264960
Jami, chorak uchun		10.73	10.73	10.73		2221110	3946389.5	-1725279

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona hisobot davri uchun budjetga 3946389.5 so'm aktsiz solig'i summasini hisoblagan, shundan o'n kunlik to'lovlar bilan 3946389.5 so'm to'lagan, biroq budjetga 3946389.5 so'm ortiqcha to'lagan. Korxonaga 1725279 so'm soliq summasi budjetdan qaytarib beriladi.

Hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

²⁹ “BOBUR OIL SERVIS” MChJi soliq hisoboti ma'lumotlaridan olindi.

- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to'lanadi.

Aktsiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i aktsiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aktsiz markalari bilan tamg'alanishi shart. Bu haqda keyingi savolimizda batafsil to'xtalamiz.

2.3. Aktsiz markalari va ularni qo'llashning maqsad va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish, import qilish, saqlash, tashish va sotish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek, mazkur tovarlarni yashirin tarzda ishlab chiqarilishi yoxud pinhona olib kelinishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aktsiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida" 1996 yil 14 avgustdagi 285-sonli qarori e'lon qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida 1996 yil 1 oktyabridan boshlab ishlab chiqarilayotgan va uning hududiga olib kelinayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, belgilangan namunadagi aktsiz markalari bilan majburiy markalash joriy etildi va ularni O'zbekiston

Respublikasi hududiga olib kirish, aktsiz markalarini yopishtirmagan holda tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish taqiqlab kuyildi.

Aktsiz markalarini qo'llashning tartibiga doir 1996 yil 21 avgustda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 275-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga nisbatan aktsiz markalarini qo'llanish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma ishlab chiqildi va bu yo'riqnoma 1999 yilgacha amal qilib keldi. 1999 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 7 yanvarda 589-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aktsiz markalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi yangi yo'riqnoma amalga kiritildi.

Mamlakatimizda aktsiz tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish, import qilish, saqlash, tashish va sotish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek, aktsiz solig'ini to'liq yig'ib olish, mazkur tovarlarning yashirin tarzda ishlab chiqarilishining yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinishining oldini olish maqsadida aktsiz markalari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi hududida eksport uchun ishlab chiqarilgan yoki xalqaro tranzit maqsadida olib kelingan, aktsiz markalari bilan markalanmagan aktsiz tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududida sotish taqiqlanadi hamda aktsiz markalarini qalbakilashtirganlik uchun, shuningdek, qalbaki aktsiz markalarini sotganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq jinoiy javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Aktsiz tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar aktsiz markalarining zarur miqdorini ularning turlari bo'yicha sotib olish uchun buyurtirilayotgan miqdordagi aktsiz markalarining butun summasini nominal qiymati bo'yicha respublika budjetiga to'laganlaridan keyin ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq inspeksiylariga buyurtma beradilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat soliq boshqarmalari hududlar bo'yicha tushgan arizalarni umumlashtirib, ularni har chorakda rahbariyatning imzosi bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga belgilangan muddatda, ishlab chiqaruvchi

korxonalar o'zlari buyurtirgan miqdordagi aktsiz markalarining nominal qiymatini to'laganliklarini tasdiqlovchi hujjat bilan yozma shaklda taqdim etadilar. Kelgusi yil uchun ariza bir yilga choraklar bo'yicha taqsimlangan holda beriladi.

Importchilar uchun, shu jumladan, aktsiz tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kelayotgan jismoniy shaxslar o'zlarining arizalarini Davlat bojxona qo'mitasining Korakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy organlariga topshiradilar. Bunday organlar taqdim etilgan arizalar asosida yuqorida tilga olingan tartibga o'xshash tarzda aktsiz tovarlar uchun aktsiz markalariga yig'ma arizani tuzadilar va yozma ravishda rahbariyatning imzosi bilan Davlat bojxona qo'mitasiga taqdim etadilar. Kelgusi yil uchun ariza umuman bir yilga choraklar bo'yicha (yoxud importchilarning tegishli kontraktlari bo'yicha) taqsimlangan holda beriladi.

“Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasida aktsiz markalarini bosib chiqarish uchun buyurtmalarni joylashtirish Davlat soliq qo'mitasi hamda Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Aktsiz markalarini sotish davlat soliq inspeksiyalari va Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahar hududiy organlari tomonidan Agrobankning mintaqaviy bo'linmalari orqali ana shu markalarni sotib olish uchun hisob-kitob arizaga ko'ra amalga oshiriladi.

Aktsiz markalari Agrobankning hududiy bo'linmalari tomonidan quyidagilarga beriladi:

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni mahalliy ishlab chiqaruvchilarga - aktsiz markalarining nominal qiymatini to'lagandan sung;
- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni import qiluvchilarga – aktsiz markalarining nominal qiymatini va to'liq miqdorda aktsiz solig'ini to'lagandan sung.

Ishlab chiqaruvchilar va importchilar aktsiz markalarini nominal qiymati bo'yicha sotib olayotganligidan tushadigan pul mablag'lari respublika budjetiga kiritiladi va aktsiz solig'ini to'lashda aktsiz markalarining qiymati hisob-kitobga kiritilmaydi.

Aktsiz markalarining nominal qiymati “Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasining hisob-kitoblari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Aktsiz markalarining ishlab chiqarishga doir harajatlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ularning nominal qiymati doirasida respublika budjeti mablag'lari hisobidan koplanadi.

Aktsiz markalarini olish uchun ishlab chiqaruvchi korxonalar va aktsiz tovarlarni import qiluvchilar Davlat soliq inspeksiyasiga yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organlariga 3 nusxada ariza-hisob-kitobni taqdim etadilar. Ariza-hisob-kitobning birinchi va ikkinchi nusxalari Davlat soliq inspeksiyasi yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organining “Aktsiz markalari uchun haq to'langan” degan shtampi bosilgan va Davlat soliq inspeksiyasi yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organi mas'ul shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan holda xaridorga qaytariladi. Uchinchi nusxasi qayd etish va nazorat qilish uchun Davlat soliq inspeksiyasida yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organida qoladi.

Davlat soliq inspeksiyasining yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organining xodimi aktsiz markalarini sotib olish uchun ariza hisob-kitobni qabul qilish paytida xaridorni maxsus jurnalda ro'yxatga oladi. Ariza-hisob-kitobdan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar va importchilar mablag'lar respublika budjetiga o'tkazilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjatini Davlat soliq inspeksiyasiga yoki Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organiga taqdim etadilar. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan va lekin bankda hisobvarag'i bo'lmagan jismoniy shaxslar (importchilar) aktsiz markalari uchun respublika budjetiga o'tkazish maqsadida Agrobankning tegishli hududiy bo'linmalariga naqd pul mablag'larini to'laydilar.

Import bo'yicha keltirilayotgan aktsiz tovarlarni aktsiz markalari bilan markalash importchilar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining aktsiz markalari bilan markalanmagan aktsiz tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududida sotib olish va sotish man etiladi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA AKTSIZ SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Xorijiy davlatlarda aktsiz solig'ini undirishning o'ziga xos- xususiyatlari.

Hozirgi vaqtda aktsiz solig'i xorijiy mamlakatlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi³⁰.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovar oborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida aktsiz solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Endi bevosita savolning mohiyatini yoritadigan bo'lsak, aktsiz solig'i xorijiy davlatlarda keng qo'llanilib, uning amal qilish mexanizmi va soliq tizimidagi ahamiyati turli davlatlarda turlichadir. Aktsiz solig'i davlat soliq siyosatining asosiy qismlaridan biri bo'lib, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biridir.

³⁰ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. С. 124

Masalan, Italiyada aktsiz soliqlari egri soliqlar ichida fiskallik ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Aktsizli daromadlarning asosiy qismini neft va neft mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlaridan tushumlar ta'minlaydi. O'xshash holat bir qator MDH davlatlarida ham kuzatiladi. Jumladan, egri soliqlar ichida aktsiz soliqlarining ulushi Qirg'izistonda 32 foizgacha, Tojikistonda esa 34 foizgacha o'sgan.

Federativ davlat tuzilishiga ega mamlakatlarda aktsizli daromadlar, soliq qonunchiligiga ko'ra, federal budjetga yo'naltiriladi. Masalan, Germaniyada federal budjet tushumlari iste'mol talabidagi mahsulotlar (benzin va boshqa neft yoqilg'ilari - 5.6 foiz, tamaki - 3.1 foiz, vino va aroq mahsulotlari - 0.8 foiz va boshqalar)ga solinadigan soliqlar (aktsizlar) hisobiga shakllanadi. Spirtli aroq mahsulotlariga solinadigan soliqlardan (pivoga solinadigan soliqdan tashqari, ushbu soliq to'lig'icha Erlar budjetiga o'tkaziladi) tushumlar to'lig'icha federal budjetga o'tkaziladi. 1994 yilda Germaniya davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi: mineral yoqilg'i, kofe, tamaki mahsulotlariga solinadigan aktsizlar hisobiga shakllangan.

AQSh davlat budjeti daromadlarida aktsizlar salmog'i quyidagi jadvalda keltiriladi:

11-jadval

AQSh davlat budjeti daromadlarida aktsiz solig'ining salmog'i³¹

	Federal budjet	Shtatlar budjeti	Munitsipal budjet
Aktsiz solig'i (foizda)	4	20	-

Avstraliyada aktsizli daromadlarning 90 foizi tovarlarning uch guruhiga: avtomobil yoqilg'isi, tamaki mahsulotlari hamda alkogolli ichimliklarga to'g'ri keladi.

Keyingi o'rinlarda aktsiz solig'ining mazkur davlatlarda amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

³¹ Рудый К. Финансово-кредитные системы зарубежных стран. -М.: "Новое знание", 2003. С.122

AQShda aktsizlar bir necha guruhlarga bo'linadi:

- yoqilg'i mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi, aviatsiya kerosini)ga solinadigan soliqlar;
- sanoat buyumlari (avtomobil shinalari, ov qilish va baliq ovlash uchun maxsus jihozlar, tibbiy vaktsina va faol preparatlar)ga solinadigan soliqlar;
- kommunikatsiya va transport soliqlari;
- tabiatni muhofaza qilish yig'implari va boshqalar.

Frantsiyada aktsiz osti tovarlariga quyidagi tovarlar kiradi: alkogolli ichimliklar, tamaki, gugurt, turli yondirgichlar, qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlar, shakar, konditerlik mahsulotlari, pivo, gazlangan mineral suvlar, transport vositalarining ayrim turlari va boshqalar³².

Buyuk Britaniyada egri soliqlar guruhida ikkinchi o'rinni aktsizlar egallaydi. Yoqilg'i maqsadlarida foydalaniladigan neft mahsulotlari, qolgan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladiganlariga nisbatan yuqori stavkalarda aktsiz solig'iga tortiladi.

Avtomobillar uchun ekologik toza bo'lgan yoqilg'i turlari (yuqori darajada tozalangan benzin, gaz va oltingugurt darajasi kamaytirilgan dizel yoqilg'isi)dan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida aktsiz solig'ining past darajadagi stavkalari ko'zda tutilgan. Transport vositalari uchun ishlatilmaydigan kerosin, sanoat, qishloq xo'jaligi va dengiz kemachiligida foydalaniladigan moylash materiallari aktsiz solig'iga past stavkalarda yoki umuman tortilmaydi. O'rin bosuvchi yoqilg'i turlari neft mahsulotlariga qo'llaniladigan stavkalarda aktsiz solig'iga tortiladi.

Spirтли ichimliklar, vino, pivo, olma vinosiga aktsiz solig'i stavkalari ichimlik quvvati va idish hajmiga qarab tabaqalashgandir. Ilmiy, tibbiy, tadqiqot va sanoat maqsadlarida ishlatiladigan spirt aktsiz solig'iga tortilmaydi. Sigaretalar uchun aktsiz solig'i har bir sigaretadan qisman qat'iy summalarda va qisman chakana narxlardan foiz ko'rinishida undiriladi. Boshqa tamaki mahsulotlariga aktsiz solig'i ularning og'irligidan undiriladi. Hukumat chekishga qarshi kurashish dasturi

³² Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. С. 125

doirasida tamaki va tamaki mahsulotlariga aktsiz solig'ini yana 5 foizga oshirishni mo'ljallamoqda. Bundan tashqari, aktsiz solig'i kazino, pul tikish, garov o'ynash, bingo va avtomat o'yinlariga ham solinadi.

Soliq stavkalari o'yin turlariga qarab tabaqalashadi. Aktsiz solig'i yalpi yoki sof daromaddan foiz ko'rinishida yoki qat'iy belgilangan summalarda, masalan, o'yin avtomatlarida, har bir avtomatdan o'yin narxi va o'yindagi yutuq miqdoriga bog'liq holda undiriladi. Milliy lotereyalarni o'tkazishdan olingan yalpi daromad 12 foizli aktsiz solig'iga tortiladi, lotereyalardan yutuqlar soliqqa tortilmaydi. Shaxsiy transport vositalari (engil mashina va taksi) egalaridan 150 funt sterling miqdorida yillik aktsiz solig'i undiriladi. Yuk mashinalariga aktsiz solig'i transportning yukni ko'tara olishi, agar 12 tonnadan ortiq yukni ko'tara olsa undagi o'qlar sonidan kelib chiqib hisoblanadi. Soliqdan tushgan tushum yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq harajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Avtobus va taksilar uchun aktsiz solig'i ulardagi yo'lovchi o'rindiqlari soniga, mototsikllar uchun esa - dvigatel hajmiga bog'liq holda tabaqalashtiriladi. 1973 yilgacha ishlab chiqarilgan shaxsiy transport vositalari - mashina va taksilar, mototsikllar - aktsiz solig'idan ozod etilgan.

Atrof muhitni kam ifloslantiruvchi mashinalar uchun yangi aktsiz solig'i stavkalari joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Unga asosan engil mashinalar uchun 50 funt sterlinggacha, yuk mashinalari uchun esa 500 funt sterlinggacha chegirmalar taqdim etiladi.

Boshqa aktsiz soliqlari va yig'implari:

- barcha mol-mulklar sug'urtasiga solinadigan soliq (4 foiz), sayohat mobaynida sug'urtalanishlarga, mashinalar va maishiy uskuna bilan savdo qiluvchilar tomonidan sotilgan sug'urta polislariga solinadigan soliq (17.5 foiz);
- Evropa Ittifoqi davlatlariga va mamlakat ichidagi avia qatnovlar uchun - 10 funt sterling miqdorida hamda 20 funt sterling miqdorida qolgan qatnovlar uchun aktsiz yig'implari;
- ishlab chiqarish chiqindilari va aholi axlatlari uchun soliq (1 tonnasi uchun 10 funt sterling).

Umuman olganda, Buyuk Britaniyada barcha aktsiz to'lovlari stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha belgilangan³³.

Kanadada aktsizlar ikki qismga: federal va hududiy aktsizlarga bo'linadi. Hududiy aktsizlarni joriy etish huquqi provintsiyalar hukumati vakolatidadir. Aktsiz solig'ini undirish federal hukumatning alohida huquqi (siyosati) hisoblanadi. Bundan tashqari, Kanadada aktsizlar soliqqa tortishning eng qadimgi shakli hisoblanadi. Benzin, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari asosiy aktsiz osti tovarlari hisoblanadi. Benzining soliq (va avtomobillarni ro'yxatga olishda litsenziya yig'imi) provintsiyalarda zarurat tufayli (1924-1926 yillarda avtomobil yo'llari etishmas edi) joriy etilgan. Benzining soliq provintsiyalarda qat'iy belgilangan summalarda yoki narxga ustama shaklida foizlarda belgilanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida federal hukumat soliqni o'z stavkasi bilan to'ldirdi hamda 1970 yildagi neft inqirozidan keyin tashqi savdoni tartibga solish doirasida uni federatsiya vakolati deb e'lon qildi. Biroq, 1986 yildagi neft vasvasasidan keyin Ottava yonilg'i bozoridagi o'z ishtirokini saqlab qoldi. Hozirgi kunda ikkala darajadagi hukumat ham soliqni yig'ishda qatnashmoqdalar. Federal aktsiz solig'i qat'iy belgilangan stavkalarda (1 litr uchun 8 tsent miqdorida) undiriladi.

Yaponiya soliq tizimi, budjet tizimi kabi, ikki pog'onali (unitar davlat tuzilishidan kelib chiqib) bo'lib, o'z ichiga markaziy hukumat soliq tushumlari (barcha soliq tushumlarining 2/3 qismi) va mahalliy hokimiyat organlari solikli tushumlarini (barcha soliq tushumlarining 1/3 qismi) oladi. Egri soliqlar Yaponiya soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir. 1997 yilda egri soliqlar davlat budjeti daromadlarining 25.8 foizini, 1999 yilda 42.8 foizini tashkil etdi. Aktsiz solig'i spirtli ichimliklarga, tamaki mahsulotlariga, gaz, neft va neft mahsulotlariga solinadi. Bundan tashqari mehmonxonada yashash uchun, restoranlarda ovqatlanish uchun, qaynoq buloq manbalarida cho'milish uchun aktsiz soliqlari amal qiladi.

Umuman olganda barcha davlatlarga xos bo'lgan umumiylik aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar guruhi (iste'mol tovarlari, mineral resurslar va xasham

³³ Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. 82-bet

buyumlar) hisoblanadi. Demak, xorijiy davlatlarda aktsizlar nafaqat budjet daromadlarining asosiy manbai, balki ijtimoiy zarar bo'lgan mahsulotlar iste'moli va import tovarlar hajmini cheklash hamda tovarlar bahosiga ta'sir etishning samarali usuli hamdir.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aktsiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash mexanizmini takomillashtirish.

Respublikamiz soliq tizimini isloh qilishda aktsiz solig'ini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillar davomida aktsiz solig'i borasida amalga oshirilgan o'zgarishlar shubhasiz, respublika soliq tizimini samarali tashkil etish uchun xizmat qilib kelmoqda. Bu borada aktsiz solig'i qo'llaniladigan tovarlarning keskin kamaytirilishi bilan birga, so'nggi yillarda aktsiz solig'i stavkalarining qat'iy miqdorlarini qo'llanilishi va 2008 yildan e'tiboran aktsiz solig'ini hisoblash mexanizmiga kiritilgan o'zgarish mazkur soliqni ancha soddalashtirishga va erkinlashtirishga, eng asosiysi soliq yukini yashiringan qismini oshkora qilib belgilanganligi bilan ahamiyatlidir.

2008 yil 1 yanvardan aktsiz solig'i bo'yicha respublikamizda ishlab chiqarilgan mebellar, billurdan tayyorlanadigan buyumlar, video va audio uskunalarga aktsiz solig'i bekor qilindi. Alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aktsiz solig'i stavkalari bixillashtirildi.

Aktsiz solig'ining oxirgi to'lovchisi xaridor - iste'molchi uchun bu soliqning qanday holda narxda aks etishi farqi yo'qdek hisoblanadi, bunda narx albatta ancha oshadi. Ikkinchidan, agar korxona mahsuloti tannarxi aktsiz solig'i hisobiga oshsa-yu, lekin foydaning (shu mahsulotdan keladigan) mutlaq summasi o'zgarmasa, ya'ni rentabellikka, aktsiz solig'i (tannarxga kiritilgani) hisobiga pasaysa bu ham korxona moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qilmagan bo'ladi.

Aktsiz solig'i iste'molga soliq hisoblangani uchun korxonalar moliyaviy axvoliga ta'sir qilmasligi kerak. Kuchli iqtisodiy raqobat sharoitida narxlarning oshishi juda qiyin bo'ladi. Shunday sharoitda aktsiz solig'ining o'rnatilishida

soliqning bir qismi mahsulot ishlab chiqaruvchi zimmasiga tushishi mumkin, lekin birinchi navbatda bozordagi talab va taklif qonuni asosida harakat kiladi.

Egri soliqlar tizimida aniq masalalar shu soliq xususiyati va vazifalaridan kelib chiqkan holda hal etilishi kerak, balki bu soliq turiga unga xos bo'lmagan boshqa vazifani qo'llash bilan emas. Faqatgina shunda egri soliqlar tizimini bir qolipga keltirish mumkin. Shuning uchun aktsiz solig'i doirasida yangiliklar kiritish kerak, ya'ni stavkalarni belgilashda tovarlarning talab egiluvchanligiga e'tibor berish, qat'iy aktsizosti tovarlar ro'yxatini belgilash kabilar. Boshka mamlakatlar bilan savdo aloqalariga ega ekanmiz, shu nuqtai nazardan ham aktsizlarda yangilik qilish darkordir. Shular bilan bir qatorda mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilayotgan tovarlar himoyasi uchun, masalan, video va audio apparaturalar, avtomobillar kabi tovarlarga nisbatan soliq va bojxona nazoratini o'rnatish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliq mexanizmining fiskal vazifasidan foydalangan holda bir qancha makroiqtisodiy muammolarni hal etishga erishiladi va shu munosabat bilan aktsiz solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri belgilanadi. Masalan, eksportga chiqariladigan ayrim tovarlarni aktsiz solig'idan ozod qilinishi xam korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyatlarini oshirishga, jaxon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga va erkin almashtiriladigan valyutani mamlakatga jalb qilishga olib keladi.

Aktsiz solig'ini tartiblashdagi asosiy muammo bo'lib, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar va mahsulotlar ro'yxatini aniqlashdagi muammolar hisoblanadi, ya'ni har yilda bir xil tovarlar bu ro'yxatga qo'shilib, yana chiqariladi. Bizning fikrimizcha aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarning mustahkam turini aniqlab olish zarur.

Aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarga soliq stavkalarini belgilashda ham ancha kamchiliklar mavjud. *Birinchidan*, bu soliq stavkalarining tez o'zgaruvchanligi, ya'ni ayrim tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i stavkalari bir yilning ichida bir necha marta o'zgarishi, soliqni davlat budjetiga o'tkazishdagi va uning hisob-kitobini olib borish bo'yicha soliq to'lovchilarda muammolarni

tug'dirmokda. *Ikkinchidan*, ayrim tovarlar bo'yicha, ya'ni juda ham zarur bo'lmagan va boylik belgisi hisoblangan zargarlik buyumlari, chinni servislari va boshqa ayrim tovarlar bo'yicha soliq stavkasi juda past, lekin ishlab chiqarish va xo'jalik maqsadlari uchun zarur bo'lgan neft mahsulotlarining soliq stavkasi nisbatan yuqori foizni tashkil etadi, bu esa albatta jamiyat miqyosida boshqa tovarlar narxining o'sishiga olib keladi. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu soliq stavkasining neft mahsulotlariga nisbatan ko'tarilishining ijobiy tomonlari ham mavjud. Jumladan, bu ishni amalga oshirish bilan boshqa soliq stavkalarining pasayishiga olib keladi.

Mamlakatda hozirgi kunda ayrim xizmatlarga ham aktsiz solig'ini joriy qilish sharoiti yuzaga kelgan. Bunday xizmatlar ichida birinchi nomzodi sifatida uyali aloqa xizmatini aytish mumkin. Ushbu xizmat turiga aktsiz solig'i joriy etish aktsizlarning asl mohiyatiga ham to'g'ri keladi. Chunki, *birinchidan*, aktsiz solig'i inson sog'lig'i uchun zararli bo'lgan mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi. Uyali aloqa ham insonga nurlanish orqali zararli hisoblanadi. Ushbu xizmat bozoridagi hozirgi raqobat sharoitida uyali aloqa xizmatidan foydalanganlik uchun haq keskin pasayib borayotganligi ushbu xizmatdan foydalanishni rag'batlantirmoqda va ulardan foydalanuvchilarning soni ham ko'payib bormoqda. Mana shuning o'zi aktsizlarning *ikkinchi* xususiyatini namoyon qilishga zamin yaratmoqda, ya'ni uyali aloqa xizmatidan foydalanish ko'lamining kengligi unga aktsiz solig'i joriy qilish uchun qulay sharoitdir. Yoki fikrimizni talab va taklif qonuni asosida tushuntiradigan bo'lsak, uyali aloqa xizmatiga bo'lgan talab unga bo'lgan taklifga nisbatan elastikroqdir.

Uchinchidan, uyali aloqa xizmatidan asosan aholining boy va o'rta hol qatlami foydalanadi. Demak, shu nuqtai-nazardan unga aktsiz solig'ini joriy qilinishi soliqning ijtimoiy funksiyasini ham amalga oshirishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, uyali aloqa xizmati xaridorgir, bozori chaqqon tovar bo'lganligidan, shuningdek ushbu xizmatning taklifi juda harajattalab emasligidan unga aktsiz solig'ini joriy qilinish davlat budjetining yana bir barqaror daromad manbaini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, uyali aloqaga aktsiz solig'ining joriy qilinishi o'simlik yog'iga qo'llanilayotgan aktsiz solig'ini pasaytirish yoki butunlay olib tashlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa, iste'molga soliqlar yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi.

XULOSA

Aktsiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida chiqarilgan xulosalar quyidagilardan iborat.

1. Aktsiz solig'i egri soliqlar tarkibiga kirib, tarixiy shakllangan soliqdir;
2. Aktsiz solig'i tushumlari tarkibining tahlili bevosita aktsiz solig'i ulushi kamayganini ko'rsatdi;
3. Aktsiz solig'i qadimda ham alkohol mahsulotlariga nisbatan qo'llanilgan;
4. Aktsiz solig'ining huquqiy bazasi respublikamizda shakllantirilgan;
5. Hozirgi kunda respublikamizda amal kilayotgan aktsiz solig'ini ikkiga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxlardan olinadigan aktsiz solig'iga hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan aktsiz solig'iga bo'lishimiz mumkin.
6. Respublikamizda aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar tarkibi boshqa rivojlangan davlatlardagidan biroz farq qiladi. Ayrim birlamchi iste'mol tovarlari ham aktsiz solig'iga tortiladi
7. Oxirigi yillarda aktsiz solig'i bo'yicha kiritilayotgan o'zgarishlar mazkur soliqni unifikatsiya qilishni taqazo etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aktsiz solig'ini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Rivojlangan davlatlar tajribasidan bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida egri soliqlarning rolini oshirish muhimdir, chunki katta miqdordagi mablag'ni shakllantirish uchun uni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchidan (yuridik yoki jismoniy shaxsdan), uning daromadidan undiradigan bo'lsak, u holda u bunday soliq yukini ko'tarolmaydi. Shuning uchun bu mablag'ni tovar (ish, xizmat) larni iste'mol kiluvchilar elkasiga ma'lum bir vaqtgacha (bozor munosabatlariga o'tib olguncha) yuklasak maqsadga muvofiq.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida aktsiz solig'i baho tarkibida va qo'shilgan qiymat solig'i bazasida hisoblanadi deb ko'rsatilgan. Shundan kelib, korxonalar chetdan tovarlar olib kelish vaqtida boj to'lovlarini, aktsiz

solig'ini to'laganlaridan keyin qo'shilgan qiymat solig'i undiriladi. Fikrimizcha, bu erda soliqni undirish mexanizmi biroz buziladi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i bazasiga aktsiz va boj to'lovlari ham kiritiladi. Ya'ni, soliqqa tortiladigan bazaga oldin undirilgan aktsiz solig'i summasi ham kiritilmoqda, bu to'langan soliq uchun yana soliq to'lash demakdir. Bu soliqqa tortishning aniqlik va adolatlilik tamoyillariga mos kelmaydi.

3. Respublikamizda hozirgi vaqtda aktsiz solig'iga tortiladigan mahsulotlar ro'yxatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan mahsulot, masalan o'simlik yog'i mavjuddir. Ushbu mahsulotni aktsiz solig'iga tortish jahon aktsiz solig'iga tortish amaliyotida keng tarqalgan mahsulotlar ro'yxatida mavjud emas. Shu sababdan ushbu mahsulotga aktsiz solig'iga tortish ijtimoiy nuqtai nazarda maqsadga muvofiq emas.

4. Aktsiz solig'i davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan soliqdir. E'tiborli jihat shundan iboratki, hozirgi paytga kelib respublikada ishlab chiqarilayotgan tovarlarning 14 ta turiga aktsiz solig'i joriy etilgan bo'lsada, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda uning ulushi ancha yuqori.

5. Mamlakatda hozirgi kunda ayrim xizmatlarga ham aktsiz solig'ini joriy qilish sharoiti yuzaga kelgan. Bunday xizmatlar ichida birinchi nomzodi sifatida uyali aloqa xizmatini aytish mumkin. Ushbu xizmat turiga aktsiz solig'i joriy etish aktsizlarning asl mohiyatiga ham to'g'ri keladi.

Chunki, birinchidan, aktsiz solig'i inson sog'lig'i uchun zararli bo'lgan mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi. Uyali aloqa ham insonga nurlanish orqali zararli hisoblanadi. Ushbu xizmat bozoridagi hozirgi raqobat sharoitida uyali aloqa xizmatidan foydalanganlik uchun haq keskin pasayib borayotganligi ushbu xizmatdan foydalanishni rag'batlantirmoqda va ulardan foydalanuvchilarning soni ham ko'payib bormoqda.

Mana shuning o'zi aktsizlarning ikkinchi xususiyatini namoyon qilishga zamin yaratmoqda, ya'ni uyali aloqa xizmatidan foydalanish ko'lamining kengligi unga aktsiz solig'i joriy qilish uchun qulay sharoitdir. Yoki fikrimizni

talab va taklif qonuni asosida tushuntiradigan bo'lsak, uyali aloqa xizmatiga bo'lgan talab unga bo'lgan taklifga nisbatan elastikroqdir.

Uchinchidan, uyali aloqa xizmatidan asosan aholining boy va o'rta hol qatlami foydalanadi. Demak, shu nuqtai-nazardan unga aktsiz solig'ini joriy qilinishi soliqning ijtimoiy funksiyasini ham amalga oshishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, uyali aloqa xizmati xaridorgir, bozori chaqqon tovar bo'lganligidan, shuningdek ushbu xizmatning taklifi juda harajattalab emasligidan unga aktsiz solig'ini joriy qilinish davlat budjetining yana bir barqaror daromad manbaini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, uyali aloqaga aktsiz solig'ining joriy qilinishi o'simlik yog'iga qo'llanilayotgan aktsiz solig'ini pasaytirish yoki butunlay olib tashlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa, iste'molga soliqlar yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan taklif va muloxazalarning amaliyotga tadbiq etilishi aktsiz solig'idan iste'molni tartibga soluvchi va ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish imkoniyatini beradi, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aktsiz solig'ini takomillashtirish jarayonini tezlashtiradi, milliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va rivojlantirish orqali budjet daromadlarining ko'payishiga zamin yaratadi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2012
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2012
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 1997 yil 29 avgust
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 2006 yil 21 sentyab
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1887-
sonli Qarori
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1675-
sonli Qarori
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1449-
sonli Qarori
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1245-
sonli Qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning
asarlari va ma'ruzalari:

- 1.9. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: “O'zbekiston”, 2013. –32 b.
- 1.10. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: “O'zbekiston”, 2012. –36 b.
- 1.11. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –360 b.
- 1.12. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –528 b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlar:

- 2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. –448 b.
- 2.2. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. –508 b.
- 2.3. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2009. –184 b.
- 2.4. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2007. –128 b.
- 2.5. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NOSHIR”, 2012. –236 b.
- 2.6. Gadoev E. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i. –T.: “NORMA”, 2011. –328 b.

- 2.7. Musagaliev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillash-tirishning dolzarb masalalari. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Soliq akademiyasi, 2010. –116 b.
- 2.8. Toshmurodova B., Elmirzayev S. Korporativ soliq menejmenti. O‘quv qo‘llanma. –T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2010. –104 b.
- 2.9. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2005. –544 b.
- 2.10. Gadoev E., Kuzieva N. O‘zbekistonning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli va ahamiyati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma –T.: “EL PRESS”, 2011. –204 b.
- 2.11. Jo‘raev A., Safarov G‘. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. –211 b.
- 2.12. Jo‘raev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. –T.: “Fan nashriyoti”, 2004. –242 b.
- 2.13. Zaynalov J. Soliqlar va soliqqa tortish. Samarqand. 2002. –366 b
- 2.14. Тарасова В., Владыка М., Сапрыкина Т., Семькина Л. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Кнорус”, 2012. –488 с.
- 2.15. Дорофеева Н., Брилон А., Брилон Н. Налоговое администрирование. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2010. –296 с.
- 2.16. Черник Д.Г. Налоги и налогообложения: Учебник. –М.: “ЮНИТИ”, 2010. –310 с.
- 2.17. Майбуrow И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2008. –511 с.
- 2.18. Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2006. –318 с.
- 2.19. Пансков В. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. Учебник. –М.: “МЦФЭР”, 2006. –592 с.
- 2.20. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. –899 с.

- 2.21.Алиев Б., Абдулгалимов А., Алиев М. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2011. –240 с.
- 2.22.Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010. –240 с.
- 2.23.Качур О. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Кнорус”, 2009. –360 с.
- 2.24.Евстигнеев Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –Спб.: “ПИТЕР”, 2009. –320 с.
- 2.25.Алиев Б. и другие. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Финансы и кредит”, 2008. –448 с.
- 2.26.Скрипниченко В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “БИНФА”, 2008. –496 с.
- 2.27.Рудый К. Финансово-кредитные системы зарубежных стран. -М.: “Новое знание”, 2003. С.122
- 2.28.Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. –380 с.
- 2.29.Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. –Т.: “NORMA”, 2012. –480 b.
- 2.30.O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillari) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. –Т.: “O'zbekiston”, 2011. –140 b.

III. Internet saytlari:

- 3.1. <http://www.president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.
- 3.2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.

- 3.3. <http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
- 3.4. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
- 3.5. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
- 3.6. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
- 3.7. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.